



## RAQAMLI TA'LIM SHAROITIDA O'QUV MOTIVATSIYASI VA INTELLEKTUAL RIVOJLANISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLAR

*Universitet of business and science universiteti Psixologiya yo'nalishi 3-  
bosqich talabasi Nizomiddinova Sevaraxon Akbarali qizi*

[sattarovasevara98@icloud.com](mailto:sattarovasevara98@icloud.com)

tel: +998 93 312 43 23

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada raqamli ta'lim sharoitida o'quv motivatsiyasi hamda talabalarning intellektual rivojlanishining psixologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta'lim jarayoniga kirib kelishi natijasida talabalarning o'quv faoliyatiga bo'lgan qiziqishi, mustaqil fikrlash qobiliyati va ijodiy yondashuvi sezilarli darajada rivojlanishi yoritib berilgan. Shuningdek, raqamli ta'lim muhitida motivatsiya shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar, talabalarning kognitiv jarayonlari – diqqat, xotira, tafakkur hamda muammoli vaziyatlarni hal qilish ko'nikmalarining rivojlanishiga alohida e'tibor qaratilgan. Tadqiqot natijalari raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni talabalarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshirish, mustaqil ta'lim ko'nikmalarini shakllantirish va intellektual salohiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** Raqamli ta'lim, o'quv motivatsiyasi, intellektual rivojlanish, psixologik xususiyatlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, kognitiv jarayonlar, mustaqil ta'lim, innovatsion ta'lim, interaktiv metodlar, ta'lim samaradorligi.

**Abstract:** This article analyzes the psychological characteristics of students' learning motivation and intellectual development in digital education. As a result of the introduction of modern information and communication technologies into the educational process, students' interest in learning activities, the ability to think



*independently and develop a creative approach are significantly improved. Also, special attention is paid to the factors affecting the formation of motivation in a digital educational environment, the development of students' cognitive processes - attention, memory, thinking, and problem-solving skills. The results of the study show that the educational process organized on the basis of digital technologies is of great importance in increasing students' interest in learning, forming independent learning skills, and developing their intellectual potential.*

**Keywords:** *Digital education, learning motivation, intellectual development, psychological characteristics, information and communication technologies, cognitive processes, independent learning, innovative learning, interactive methods, educational effectiveness.*

**Аннотация:** *В данной статье анализируются психологические характеристики учебной мотивации и интеллектуального развития студентов в условиях цифрового образования. В результате внедрения современных информационно-коммуникационных технологий в образовательный процесс значительно повышается интерес студентов к учебной деятельности, способность к самостоятельному мышлению и развитию творческого подхода. Также особое внимание уделяется факторам, влияющим на формирование мотивации в цифровой образовательной среде, развитие познавательных процессов студентов – внимания, памяти, мышления и навыков решения проблем. Результаты исследования показывают, что образовательный процесс, организованный на основе цифровых технологий, имеет большое значение для повышения интереса студентов к обучению, формирования навыков самостоятельного обучения и развития их интеллектуального потенциала.*

**Ключевые слова:** *Цифровое образование, учебная мотивация, интеллектуальное развитие, психологические характеристики, информационно-коммуникационные технологии, познавательные процессы, самостоятельное обучение, инновационное обучение, интерактивные методы, эффективность обучения.*



## **Kirish**

Bugungi globalashuv jarayonida ta'limning raqamlashtirilishi axborot texnologiyalariga asoslangan yangi o'quv muhitini shakllantirmoqda. Raqamli texnologiyalar qo'llanilishi ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytiradi, o'qitish jarayonini interfaol, moslashuvchan va shaxsga yo'naltirilgan shaklga keltiradi. Ayniqsa, talabalarning o'quv motivatsiyasini oshirishda raqamli ta'lim vositalari muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. So'nggi yillarda dunyo miqyosida ta'lim tizimi jadal sur'atlarda raqamlashtirilmoqda. O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida ham raqamli ta'lim platformalari, elektron darsliklar, onlayn-o'qitish tizimlari, virtual laboratoriyalar, mobil ilovalar, interaktiv multimedia vositalari keng qo'llanilmoqda. Ta'limga raqamli texnologiyalarni joriy etish nafaqat o'quv jarayonini modernizatsiya qiladi, balki talabalarning o'quv motivatsiyasiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar mobil ilovalar, onlayn ta'lim platformalari, ijtimoiy tarmoqlar, virtual o'yinlar, sun'iy intellektga asoslangan servislar va raqamli kontent yoshlarning kundalik faoliyatini belgilovchi kuchli psixologik stimulyator rolini bajarmoqda. Motivatsiya yoshlarning intellektual, ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishida markaziy o'rin tutadi. Ayniqsa, raqamli makon orqali shakllanayotgan tashqi va ichki rag'batlantiruvchi omillar ularning bilim olishga bo'lgan qiziqishi, kasbiy o'sish yo'lini tanlashi, maqsad qo'yishi hamda o'zini namoyon etish jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarning motivatsiyaga ta'siri bir yoqlama emas: ular imkoniyatlar yaratgani kabi, chalg'ituvchi omillar, past o'z-o'zini baholash va virtual qaramlik kabi xavflarni ham yuzaga keltirishi mumkin. Shu sababli "Yoshlar motivatsiyasiga raqamli texnologiyalarning ta'siri" mavzusini ilmiy nuqtai nazardan chuqur tahlil qilish bugungi kunda dolzarb va zarur masalalardan biridir [1].

## **Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi**

Raqamli ta'lim vositalarining talabalarning o'quv motivatsiyasiga ta'siri bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar ushbu vositalarning ta'lim jarayonidamuhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. I.Kalandarov va M. Rustamovalar raqamli



ta'lim platformalarining professional ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga va ta'lim sifatiga ta'sirini o'rganishgan. Mualliflar raqamli texnologiyalarning pedagogik va didaktik imkoniyatlarini tahlil qilib, ularning talabalarning bilimlarini oshirish, o'zlashtirishni samarali nazorat qilish hamda ta'lim olish jarayonini individuallashtirishga xizmat qilishini ta'kidlaydilar. B.S. Azamxonov esa Mixed Reality (MR) texnologiyasining talabalarning akademik ishlashiga va axborot kompetentligiga ta'siri har tomonlama tushunish va tahlil qilish dolzarbligi tushuntirilgan. U MR texnologiyasining ta'lim sharoitida ta'sirini o'rganish va talabaning akademik faoliyatini yaxshilashdagi ahamiyatini aniqlashga qaratilgan tadqiqot o'tkazgan[2].

## **Natija va nazariya**

Raqamli texnologiyalar XXI asrda yoshlarning hayot tarzini tubdan o'zgartirdi. Ular ta'lim olish, muloqot qilish, axborot izlash, ko'nikma egallash va o'zini namoyon etishda raqamli vositalarga tayanadigan avlod hisoblanadi. Bu jarayonning ijobiy jihatlari bilan bir qatorda, ehtiyot bo'lishni talab qiladigan salbiy oqibatlari ham mavjud. Shu sababli raqamli texnologiyalarning yoshlar motivatsiyasiga ko'rsatadigan ta'siri ikki yo'nalishda — imkoniyatlar va xavflar ko'rinishida tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar yoshlar uchun ta'lim, kreativlik va rivojlanish sohalarida misli ko'rilmagan imkoniyatlarni yaratmoqda. Avvalo, internet orqali cheksiz axborotga ega bo'lish yoshlarning qiziqishlarini kengaytiradi, o'rganishga bo'lgan ichki motivatsiyasini kuchaytiradi. Masalan, onlayn ta'lim platformalari, raqamli kurslar va virtual kutubxonalar yoshlarning mustaqil o'rganish kompetensiyasini shakllantiradi [2].

Yoshlar motivatsiyasi bu shaxsning maqsad sari intilishiga, faol harakat qilishiga, o'zini rivojlantirishga undovchi ichki va tashqi omillarning majmui bo'lib, u psixologik jarayonlarning eng muhim tarkibiy qismidir. Motivatsiya nafaqat xulq-atvorni faollashtiradi, balki uni ma'lum yo'nalishga yo'naltiradi, barqarorligini ta'minlaydi va shaxsning o'zini anglash jarayonini boshqaradi. Psixologik adabiyotlarda motivatsiya tushunchasi ichki motivlar (qiziqish, maqsad, shaxsiy



ehtiyoj) va tashqi motivlar (rag'bat, baho, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash) orqali izohlanadi.

Yosh davrida motivatsiya shakllanishiga biologik, ijtimoiy va kognitiv omillar kuchli ta'sir ko'rsatadi. Ergenlik davrida miyadagi prefrontal korteksning rivojlanishi faol davom etadi, bu esa qaror qabul qilish, maqsad qo'yish, rejalashtirish va o'zini boshqarish kabi murakkab faoliyatlar bilan bog'liq. Shu bilan birga, ijtimoiy muhit oila, maktab, tengdoshlar va raqamli makon yoshlar kayfiyati, o'zini baholashi va motivatsiya mexanizmlarini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Zamonaviy psixologiyada bir nechta motivatsion nazariyalar mavjud bo'lib, ular yoshlar motivatsiyasini chuqur anglash imkonini beradi. Masalan, Maslou ehtiyojlar ierarxiyasi nazariyasiga ko'ra, yoshlar avvalo xavfsizlik, ijtimoiylik va tan olinishi ehtiyojlari qondirilgandan so'ng, o'z-o'zini rivojlantirishga katta intilish bildiradilar [3].

O'quv motivatsiyasi – bu ta'lim oluvchilarning bilim olishga bo'lgan ichki qiziqishi va tashqi omillar orqali shakllanadigan faoliyatidir. Ta'lim jarayonida raqamli vositalar interaktivlik va ijodkorlikni oshirish orqali talabalarning o'quv materiallarini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Shu bilan birga, raqamli vositalar ta'limni yanada qulay, moslashuvchan va shaxsga yo'naltirilgan shaklda tashkil etishga imkon beradi. MR texnologiyasining talabalarning akademik faoliyatiga ta'sirini o'rganish natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli vositalarning interaktiv va ijodkorlikni rivojlantirish imkoniyati o'quv motivatsiyasini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Raqamli ta'lim vositalari ta'lim jarayonini optimallashtirishi va talabalarning bilim olish jarayoniga bo'lgan qiziqishini oshirishi sababli, zamonaviy ta'limda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, texnologiyalarni samarali tatbiq etish uchun pedagogik yondashuvlarni ham boyitish zarurdir [1].

Natijalar asosida raqamli vositalar yordamida o'qitilgan talabalar motivatsiyasi sezilarli darajada oshganligi kuzatildi. Bu o'zgarish o'quv jarayonida interaktivlikni oshirish, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish va bilimlarni vizualizatsiya qilish orqali ta'lim samaradorligini oshirish bilan bog'liq



ekanligi aniqlangan. Tadqiqotda raqamli vositalardan foydalanilgan guruhda talabalar o'z fikrlarini erkin ifoda etish, o'z-o'zini baholash va masalalarni mustaqil hal qilishda yuqori faollik ko'rsatgan. Bu kuzatuvlar xorijiy tadqiqotlar bilan mos keladi, masalan, Clark va Mayer (2016) tomonidan olib borilgan izlanishlarda raqamli o'quv vositalari va multimedia texnologiyalari o'quvchilarning motivatsiyasiga ijobiy ta'sir qilishi qayd etilgan.

Raqamli ta'lim sharoitida o'quv motivatsiyasini shakllantirishda interaktiv texnologiyalar, multimedia vositalari, virtual platformalar va onlayn resurslar muhim rol o'ynaydi. Ushbu vositalar ta'lim jarayonini ko'rgazmali, qiziqarli va samarali tashkil etish imkonini beradi. Natijada talabalar o'quv jarayonida faol ishtirok etadi, yangi bilimlarni egallashga bo'lgan qiziqishi ortadi. Ayniqsa, vizual va interaktiv materiallar orqali berilgan axborot talabaning e'tiborini uzoq vaqt davomida saqlab turishga yordam beradi[5].

Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli ta'lim muhiti talabalar uchun mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish va kreativ yondashuvlarni rivojlantirish imkoniyatini yaratadi. Talabalar turli elektron platformalar orqali mustaqil izlanish olib boradi, turli manbalarni solishtiradi va tahlil qiladi. Bu jarayon esa ularning intellektual rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Intellektual rivojlanish, o'z navbatida, tafakkur, xotira, diqqat, tasavvur hamda mantiqiy fikrlash kabi psixik jarayonlarning takomillashuvi bilan bog'liqdir.

## **Muhokama**

Raqamli ta'lim sharoitida talabalarning diqqat va xotira jarayonlari ham o'ziga xos tarzda shakllanadi. Multimedia vositalari yordamida berilgan ma'lumotlar ko'pincha vizual, audial va matnli shakllarda taqdim etiladi. Bu esa axborotni ko'p kanalli qabul qilish imkonini yaratadi. Natijada talabalarning ma'lumotni eslab qolish darajasi ortadi hamda bilimlarni mustahkamlash jarayoni samaraliroq kechadi.

Shuningdek, raqamli ta'lim muhitida talabalarning mustaqil ta'lim olish ko'nikmalari ham rivojlanadi. Elektron kutubxonalar, onlayn kurslar, video ma'ruzalar va turli ta'lim platformalari talabalarga o'z bilimlarini mustaqil ravishda



boyitish imkonini beradi. Bu esa ularda o'z-o'zini rivojlantirish, yangi bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyoj va intilishni kuchaytiradi. Psixologik jihatdan bunday faoliyat shaxsning intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Raqamli ta'limning yana bir muhim jihati bu talaba va o'qituvchi o'rtasidagi muloqot shaklining o'zgarishidir. Onlayn platformalar orqali tashkil etilgan ta'lim jarayonida talabalar o'z savollarini tezkor tarzda berishi, muhokamalarda qatnashishi va fikr almashishi mumkin. Bu esa talabalarning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, guruhli onlayn muhokamalar hamkorlikda ishlash, fikr almashish va muammolarni birgalikda hal qilish ko'nikmalarini shakllantiradi [5].

Biroq raqamli ta'lim muhitining ayrim psixologik muammolari ham mavjud. Masalan, talabalarning uzoq vaqt kompyuter yoki mobil qurilmalar bilan ishlashi charchoq, diqqatning pasayishi yoki axborot ortiqchaligi kabi holatlarga olib kelishi mumkin. Shu sababli ta'lim jarayonini to'g'ri tashkil etish, raqamli vositalardan oqilona foydalanish hamda talabalarning psixologik xususiyatlarini inobatga olish muhim hisoblanadi.

Shu bilan birga, raqamli ta'lim jarayonida talabalarning motivatsiyasini qo'llab-quvvatlash uchun turli pedagogik yondashuvlardan foydalanish zarur. Masalan, interaktiv topshiriqlar, muammoli vaziyatlar, loyihaviy faoliyat hamda rag'batlantiruvchi baholash tizimlari talabalarning o'quv jarayoniga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Bunday yondashuvlar talabalarning o'z bilimlarini amaliy faoliyatda qo'llash imkoniyatini yaratadi.

## **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, raqamli ta'lim sharoitida o'quv motivatsiyasi va intellektual rivojlanish o'zaro uzviy bog'liq jarayon hisoblanadi. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish talabalarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshiradi, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni rivojlantiradi. Shu bilan birga, raqamli ta'lim muhitini tashkil etishda pedagogik va psixologik omillarni hisobga olish ta'lim samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Abdullayeva, N. Raqamli pedagogika va yoshlar motivatsiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2022. – 214 b.
2. Xolmatov, B. Zamonaviy ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalarning qo'llanilishi. // Pedagogika va innovatsiyalar jurnali. – 2021. – №4. – B. 55–63.
3. To'xtasinova, L., Karimova, S. Yoshlar psixologiyasi. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2019. – 356 b.
4. Ryan, R., Deci, E. Intrinsic and Extrinsic Motivation in Education. – New York: Academic Press, 2020. – 289 p.
5. "Raqamli ta'lim texnologiyalari" – O'quv qo'llanma. Toshkent, 2022.
6. Azamxonov, B. S. (2024). Talabalarning raqamli ta'lim resurslari asosida takomillashtirilgan axborot kompetentligining ko'rsatkichlari tahlili. Research and Innovation, 2(3), 78–85.
7. Clark, R. C., & Mayer, R. E. (2016). E-Learning and the Science of Instruction: Proven Guidelines for Consumers and Designers of Multimedia Learning (4th ed.). Wiley.